

**ANTIK DAVR FARG‘ONA VODIYSIDAGI HIMOYA
INSHOOTLARINING QIYOSIY TAHLILLARI**

**COMPARATIVE ANALYSIS OF PROTECTIVE STRUCTURES IN THE
FERGANA VALLEY OF ANTIQUITY**

**СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЗАЩИТНЫХ СООРУЖЕНИЙ
ДРЕВНОСТИ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ**

Eshov Baxodir Jo‘rayevich

Qarshi davlat universiteti “O‘zbekiston tarixi” kafedrasida t.f.d. professor

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16870114>

Annotatsiya

Ushbu maqola Farg‘ona vodiysidagi himoya inshootlarining kelib chiqishi, taraqqiyot bosqichlari va tahlillari ilmiy manbalar va adabiyotlar asosida qiyosiy tahlil etilgan.

Abstract.

The article compares the origin, stages of development and analyzes the protective structures of the Fergana Valley based on scientific sources and literature.

Аннотация

В статье на основе научных источников и литературы сравниваются происхождение, этапы развития и анализируются защитные сооружения Ферганской долины.

Kalit so‘z:

Antik davr, Shurabashot davri, Marhamat davri, Mingtepa, Sarvontepa, Kulunchak, Xo‘jambog‘tepa, Miqtigo‘rg‘on, Mirzaolimtepa, Bilovurtepa, Arktepa, Oroltepa, shinaklar.

Key words:

Antiquity period, Shurabashot period, Merhamat period, Mingtepa, Sarvontepa, Kulunchak, Khodjambogtepa, Miktikurgan, Mirzaolimtepa, Bilovurtepa, Arktepa, Oroltepa, Shinaki.

Ключевое слово:

Период античности, период Шурабашот, период Мерхамат, Мингтепа, Сарвонтена, Куланчак, Ходжамбогтепа, Миктикурган, Мирзаолиментена, Билувуртена, Арктена, Оролтена, шинаки.

Antik davr Farg‘ona vodiysida mil. avv. IV-I asrlar Shurabashot davri va milodiy I-IV asrlar Marhamat davrlari ajratilgan [1,106-112]. Hozirgi kunga kelib Shurabashot davri yodgorliklari himoya inshootlarida qator tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlar Shurabashot, Mingtepa, Sarvontepa ko‘hna shaharlari, Kulunchak, Xo‘jambog‘tepa kabi qo‘rg‘onlar himoya inshootlari haqidagi tasavvurlarni kengaytiradi.

Mingtepa ko‘hna shahri Andijon viloyati, Marhamat shahrining sharqiy chekkasida joylashgan bo‘lib, 38 gektar maydonni egallagan. Ushbu ko‘hna shahar antik davr Farg‘ona vodiysi boshqa yodgorliklardan maydoni, to‘g‘ri burchakni rejasi va mustahkam himoyalanganligi bilan ajralib turadi. Tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, ko‘hna shahar to‘g‘ri burchakli minoralari, 5 metr qalinlikdagi mustahkam poydevor ustida qurilgan qa‘lasi bo‘lgan qalin devor bilan o‘rab olingan [2, 64-66]. Ammo, dastlabki tadqiqotlar davomida ko‘hna shahar himoya devorlarining bosqichma-bosqich rivojlanishi, ko‘hna shahardagi boshqa himoya

inshootlarining paydo bo'lishi masalalari ochiq qolganligi sababli keyingi tadqiqotlarga ehtiyoj sezilgan.

Yangi tadqiqotlar ko'hna shaharning himoya devorlarida olib borildi[3,101-104]. Ushbu tadqiqotlar natijasida Mingtepa ko'hna shahrining himoya devorlari qo'yidagi uchta davrda mustahkamlanib borganligi kuzatilgan:

Birinchi davr-mil. avv.III-I asrlar. Bu davrda eniligi 2,5 metr va to'g'ri burchakli minoralari bo'lgan himoya devori bunyod etiladi. Minoralarning ichki tomondan o'lchami 10,5x5,5 metr. Minoralar va devor paxsadan qurilgan bo'lib, ularda o'q otish shinaklari mavjud [4].

Ikkinchi davr-milodiy I-II asrlar. Himoya devorlari va minoralar kuchaytiriladi, ya'ni, devorning qalinligi 4 metrgacha balandligi 4,2 metrga boradi. Minoralar atrofi xom g'isht terib, o'rab olinganligi bois eni 18 metrga kengayadi. Ehtimol, minora xonalari ham mavjud bo'lgan.

Uchinchi davr-milodiy III-IV asrlar. Himoya devorlari yon tomonida xom g'isht terilib, ichki va tashqi tomondan kengayib qalinligi 7,3 metrga boradi. Devorlarda kamondan o'q otish shinaklari ko'paytirilib, minora xonalari qisqaradi.

Mingtepa ko'hna shahri himoya inshootlarining o'ziga xosligi shundaki, har uchchala davrda himoya devorlarida ichki kamondan o'q otish yo'laklari (koridor) mavjud emas edi. Xuddi shunday holatni shimoliy-sharqiy Farg'onaning Karkidon vohasidagi Miqtiqo'rg'on ko'hna shahrida himoya devorlari (qalinligi 10 metrgacha)da ham kuzatish mumkin [5,39-48].

Shaharga kiraverishdagi hudud hamda shahar ichining, himoya devorlarining ko'plab qalalar bilan o'rab olinganligi Mingtepaning kuchli himoyalangan ko'hna shahar bo'lganligini dalillaydi. Xuddi shunga o'xshash o'troq aholining kuchli himoya tizimi Parfiya ko'hna shaharlarida ham o'rganilgan [6].

Vodiydagi yana bir antik davrga oid yodgorlik Sarvontepa hisoblanadi. Ushbu yodgorlik Andijon shahrining shimoli-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, 6 metr balandlikdagi tepalikdan iborat. Sarvontepa ilk marta B. Abdulg'oziyeva tomonidan o'rganilgan bo'lib, "milodiy I-VIII asrlar" bilan sanalangan. Qazishmalar natijasida ushbu yodgorlik ikkita qurilish davrida qurilgan, 3 metr qalinlikdagi devorlar bilan o'rab olinganligi aniqlangan. Devorlar 1,5 metr shibbalangan tuproq poydevor asosda qurilgan [7, 21].

Mustaqillik yillarida Andijon shahrining yoshini aniqlash maqsadida Sarvontepada tadqiqotlar qayta tiklandi. Dastlabki ishlar Eylaton madaniyatiga oid materiallar yoyilgan madaniy qatlamlarni aniqlashdan boshlanib, keyinroq poydevor asoslarining yanada qadimgiroq qatlamlarini aniqlashga harakat qilingan. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida umumiy maydoni 15 gektardan iborat bo'lgan Sarvontepa qalali manzilgoh bo'lib, mil. avv. I ming yillik oxirlaridan milodiy I ming yillik o'rtalarigacha mavjud bo'lgan. Yodgorlikda kuchli himoya inshootlarining mavjudligi Sarvontepa vohaga kirishdagi malum himoya vazifasini bajarganligi[8,24] haqidagi xulosalarga asos bo'lib xizmat qilgan.

Farg'ona vodiysining antik davr himoya inshootlari haqida gap ketganda ta'kidlash lozimki, ko'hna shaharlarning tarixiy rejasi har doim ham to'g'ri burchakli bo'lmasdan ular atrofi minoralar bilan kuchaytirilgan mudofa devorlari bilan o'rab olingan.

Antik davrga oid uch qismdan iborat bo'lgan Sho'rabashot ko'hna shahri 70 gektar maydonni egallagan. Ko'hna shahar himoya devorlarining ochilishi devorlarining shibbilang tuproqdan qad ko'tarish ananalari Sho'rabashotda ham davom etganligini ko'rsatadi. Aftidan, bu devorlar xom g'isht yoki paxsa bilan o'ralib, mustahkamlangan. Bu devorlarni tadqiq etgan N. G. Gorbunova Sho'rabashot ko'hna shahar himoya tizimida minoralar bo'lmagan, deya xulosa chiqargan. Ammo, himoya devorlarining bunday qurilishi Sho'rabashot davrining ilk bosqichiga oid bo'lishi mumkin. Chunki mil. avv.II asrdan boshlab qurilish texnikasi o'zgarib borgan [9, 61].

Takidlash lozimki, Mingtepa ko'hna shahri ham Sho'rabashot davrida bunyod etilgan. Ko'hna shahar to'g'ri burchakli rejaviy tuzilishiga ega bo'lib, to'g'ri burchakli minoralari bo'lgan paxsadan qad ko'targan. Aynan Sho'rabashot davrida ichkarida hovlisi bo'lgan mustahkamlangan qo'rg'onlar bunyod etiladi. Xo'jambog'tepa va Mirzaolimtepa yodgorliklari aynan mana shunday qo'rg'onlar sirasiga kiradi. Ko'p xonali uylardan iborat Mirzaolimtepa qo'rg'oni 5 metr balandlikdagi poydevor ustiga qad ko'tarib, 2 metr qalinlikdagi paxsa devor bilan o'rab olingan [10].

Sho'rabashot davrining ilk bosqichida ham himoya devorlari ayrim manzilgohlarda paxsadan qad ko'targanligi qayd etilgan. Misol uchun mil. avv. V-II-asrlarga oid Qulunchak qishloq manzilgohining 0,5 gektar maydoni paxsadan qurilgan devor bilan o'rab olingan [11,11-17].

Ta'kidlash joizki, Farg'ona vodiysining Marhamat davri (antik davr) himoya inshootlarining barcha asosiy: kuchli himoyalangan qala; o'q otish yo'laklari va minoralari bo'lgan mustahkam himoya devorlari; devorlardagi shinaklar; tashqi devor oldidagi xandaqlar; ko'hna shahardan tog'larga qadar zanjirsimon cho'zilgan xabar beruvchi (ogohlantiruvchi) kabi belgilarga ega bo'lganligi bilan ajralib turadi. Bu davr yodgorliklari orasida Bilovurtepa va Arktepa ko'hna shaharlari hamda Oroltepa qalalari yaxshi o'rganilgan.

Bilovurtepa, Andijon viloyati, Xo'jaobod tumani Turabod qishlog'ida, Oqbura daryosining chap qirg'og'ida joylashgan. Ko'hna shahar shimoli-g'arbiy qismida trapetsiya shaklidagi qalasi bo'lgan 1 gektar maydonda saqlanib qolgan. Ko'hna shaharning tashqi devorida bir-biridan malum masofada joylashgan to'rtta minora mavjud. Minoralar himoya devorlari chizig'idan chiqmagan. Devorlardagi o'xshash minoralar Xorazmdagi Qo'yqirilgan qala ko'hna shahri minoralarida uchraydi [1248-53].

Bilovurtepadagi minoralarning bunday joylashuvi undagi arkni o'rab turgan ikki qatorli devor bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Ichki va tashqi devorlar 1 metr qalinlikda bo'lib, devorlar oralig'ida yo'lak qoldirilgan. Himoya devorlarining ichida beshta katta-kichik xonalar bo'lib, ularning eng kattasi 50 kv.m.ga boradi. Bino ichiga kirish uchun devorning shimoliy tomonida darvozasi mavjud bo'lgan [13, 90-94].

Milodiy I-IV asrlarga kelib, Marhamat bosqichi davrida arklar yanada rivojlanadi. Mingtepa arkining himoya tizimida o'zgarishlar bo'lib, burchaklarida minoralari bo'lgan o'q otish yo'laklari aniqlangan. Ta'kidlash lozimki, Antik davr Xorazm, Sug'd, Baqtriya arklari ham himoyalaniish va mamuriy markazlardan tashqari, sig'inish (diniy) himoyalaniish va mamuriy markazlar vazifalarini ham

bajarganlar [14,124]. Ammo, Fargʻona vodiysi arklarining diniy markazlar vazifasini ham bajarganligi deyarli kuzatilmagan. Faqatgina Bilovurtepa arki ikkinchi davri rejaviy tuzilishida diniy inshoot mavjudligi haqida taxminlar mavjud [15,94] xolos.

Xullas, antik davr Fargʻona vodiysi mudofaa inshootlarini mavjud manbalar asosida oʻrganish, bu jarayonni Oʻrta Osiyoning boshqa tarixiy-madaniy viloyatlari mudofaa tizimi bilan qisman qiyosiy tahlil etish shuni koʻrsatadiki, Fargʻona mudofaa tizimi evolyutsiyasi oʻziga xos boʻlsada, boshqa hududlardagi shu jarayonlar bilan oʻxshashlik topadi. Taʼkidlash lozimki, antik davr vodiyning himoya tizimi rivojida ikkita anʼana- devorlar qurilishidagi anʼanaviylik hamda ilgari tajribalarni tez oʻzlashtirish holatlari yaqqol kuzatiladi. Vaqt oʻtishi bilan harbiy qurollanish, urush olib borish strategiyasi va usullarining oʻzgarib borishi bilan koʻhna shahar va qalʼalardagi mudofaa tizimi ham takomillashib boradiki, bu jarayon nafaqat Fargʻona vodiysi, balki qadimgi Oʻrta Osiyoning barcha tarixiy-madaniy viloyatlari uchun ham xosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI (REFERENCES)

1. Горбунова Н.Г. Поселения Ферганы первых веков нашей эры // СА. М., 1977. №3.
2. Заднепровский Ю. А., Матбабаев Б.Х. Городище Мархамат// ИМКУ. Ташкент. 1991. Вып. 25.
3. Матбабаев Б.Х., Абдуллаев Б.М. Исследование на западной оборонительной стены городища Мингтепа // Археологические исследования в Узбекистане-2001 год. Ташкент. 2002.
4. Матбобоев Б.Х. Қадимги Фарғона муҳофаа иншоотларини ривожланиш босқичлари // ОНУз.- Тошкент, 1997.
5. Горбунова Н.Г. Памятники Керкидонской группы в Южной Фергане // АСГЭ.-М., 1987.-Вып. 28.
6. Кошеленко Г. А. Парфиянская фортификация // СА. №2. 1963.
7. Абулгазиева Б. Восточная Фергана в древности и раннем средневековье // Автореф. дисс. канд. ист. наук. Самарканд: ИА АН РУз. 1988.
8. Абдуллаев Б. М. Возникновение и этап развития фортификации Ферганы в древности и средневековье (кон. II тыс.дон.э.-нач. II тыс. ы. э) // Автореф. дисс. канд. ист. наук. Самарканд. 2007.
9. Горбунова Н.Г. Оборонительные сооружения на поселениях...
10. Перегулова С. Я. Древняя Фергана по письменным источникам и археологическим материалам // Изучения древнего и средневекового Кыргызстана.-Бишкек, 1998.
11. Абулгазиева Б. Археологические памятники Мархаматского района Андижанской области // ИМКУ-Ташкент, 1992. Вып.26.с. 119-125; Она же. К исследованию фортификационных сооружений городов Ферганы эпохи античности // Марк . Ос. Урбанизация жараёнларининг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари. - Самарқанд. 1995.

12. Ходжаниязов Г. История развития фортификации античного Хорезма // СА, 1981-№2.
13. Заднепровский 70.А. Городище Билувур-тепе // КСИА.М., 1985. Вып. 184.
14. Исаков А. И. Цитадель древнего Пенджиканта.- Душанбе. Дониш. 1977.
15. Заднепровский Ю. А. Городище Билувур-тепе // КСИА.М., 1985. Вып. 184.